Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат
Архитектура - Қурилиш институти

“Қурилишни бошқариш” факультети
“Касбий таълим” кафедраси

Диплом лойихасининг

# *ТУШУНТИРИШ ХАТИ*

## Мавзу: Гулли, Голланд натюрмортини ишлаш ва уни ўқитиш услуби

Кафедра мудири: доц. Рахимов А.Қ.
Рахбар: доц. Туйчиев Р.
Битирувчи:401 КТ(с) гуруҳи
талабаси Расулова Дилбар.

Самарқанд 2013 йил

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ**

**«Қурилишни бошқариш» факультети**
**« Касбий таълим » кафедраси**

# ТУШУНТИРИШ ХАТИ

**Диплом лойихасининг мавзуси**

Гулли, Голланд натюрмортини ишлаш ва уни ўқитиш услуби.
(Рангтасвир).

**Диплом лойихасини бажарувчи толиб (а)** Расулова Дилбар
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

**Кафедра мудири** доц. Рахимов А. Б.
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

**Раҳбар** доц. Тўйчиев Р.
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

**Раҳбар** ______
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

**Маслаҳатчилар** ў.қ.т. Мешкулов А. Н.
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

______
(Ф.И.Ш.) (Имзо)

**Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура Қурилиш Институти**

«Қурилишни бошқариш» факултети

«Касбий таълим» кафедраси

## ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН ТОПШИРИҚ

Расулова Дилбар 401-КТ(с)

(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

**I. Диплом лойихасининг мавзуси** Гулли, Голланд натюрмортини ишлаш ва уни ўқитиш усуби. (Рангтасвир).

Институт буйича 2012 йил «29.» 12. 246-у сон буйруқ асосида тасдиқланган.

**II. Диплом лойихасини бажариш учун маълумотлар** Рангтасвирда гулли голланд натюрмортларига оид келтирилган маълумотлар тўплами.

**III. Тушунтириш хатида келтириладиган:**

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Тўпланган маълумотлар таҳлил қилиниб, мавзу асосланади ва диплом иши режаси тузилади.

2. Диплом лойихасининг назарий шакли ишланмалари Рангтасвирда натюрморт жанрига бағишланган натюрморт асосларини яратиш назариясини изоҳлаш.

3. Диплом лойихасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Мавзуга оид эскиз тайёрлаш ва керакли ўлчамда ишлов бериш.

4. Ўқув услубий қисми Мавзу бўйича дарс бериш режасини тузиб 2-соатлик дарснинг меъёрий ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва замонавий ўқитиш технологияларини қўллаб дарс ўтиш услубини яратиш.

5. Диплом лойихаси бўйича хулоса қисми Диплом ишини бажариш жараёнида талабанинг диплом иши бўйича шахсий хулосаси келтирилади.

6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Диплом ишини бажариш жараёнида қўлланилган адабиётлар ва меъёрий ҳужжатлар рўйхати келтирилади.

**IV. Диплом лойихасининг таркиби ва график қисми:**

1. Рангтасвирнинг натюрморт жанрида бажарилган гулли, голланд натюрморти.

2. Гулли, голланд натюрморт эскизи.

3. Дарс режаси ва 80-минутлик дарс тақсимоти.

4. „Тушунчалар тизими" дарс ўтиш услуби.

**V. Диплом лойихасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:**

| № | Диплом иши қисмлари | Бошланиши | Тугалланиши | Маслахатчилар | Изох |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг тахлили ва асослаш. | 1.03.13 | 25.03.13 | Тўйчиев Р. | [signature] |
| 2. | Диплом иши назарий шаклининг ишланмалари. | 26.03.13 | 12.04.13 | Тўйчиев Р. | [signature] |
| 3. | Диплом ишининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш. | 13.04.13 | 10.05.13 | Тўйчиев Р. | [signature] |
| 4. | Ўқув услубий қисми. | 11.05.13 | 15.06.13 | Шеникулов А. | [signature] |

**Изох:**

1. Диплом лойихаси «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида рахбар ёки маслахатчи томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра томонидан рухсат берилади.

**VI. Топшириқ берилган сана** 1. 03. 13.

**VII.Тугалланган диплом лойихасини топшириш санаси** 15. 06. 13.

Диплом лойихаси раҳбари доц. Тўйчиев Р. [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Топширик бажариш учун қабул қилинди Расулова Д. [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Кафедра мудири доц. Рахимов А. К. [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

# MUNDARIJA:


**I. KIRISH………………………………………….. 6**

**II. Mavzuni asoslash…………………….…………. 9**

**a) Rangtasvir san'ati…………………………… 15**

**b) Rangtasvirda natyurmort janri……………. 17**

**c) Natyurmort ishlash ketma ketligi………….. 20**

**III. Atrof muxit muxofazasi qismi……….…….. 25**

**IV. O'quv uslubiy qism………………………….. 30**

**V. Xulosa…………………………………….…… 43**

**VI. Adabiyotlar…..……………………….……… 45**

# I. KIRISH

# Kirish

O’zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi to’g’risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Oliy va O’rta maxsis ta’lim tizimi oldiga yuksak ma’naviy, mafkuraviy, milliy axloqiy, mehnat intelektual ong, hayotiy va jismoniy sog’lom avlod yaratishga yuksak vazifalar qo’ldi. Ma’lumki, barkamol avlodni shakllantirish ko’p jihatdan tarbiyachi, pedagog, ota-ona ustozlarning mahoratiga bog’liq. O’qituvchining o’rni va uning sharafli vazifalari o’qituvchilik kasbi shon-sharafi va mashaqqatlari bugun ham mustaqil respublikamizda yanada yuksakroq qadrlanmoqda.

Bugun o’qituvchi-maktabga o’qituvchi, rahbar, ma’naviyat va marifat targ’ibotchisi, metodik birlashmalarga ish olib boruvchi, ota-onalar va jamoatchilikka ma’ruzalar o’qiydi, suhbatlar olib boradi. U pedagogoik, psixologik va yangi pedagogoik texnologik bilishlar targ’ibotchisi. Ana shularga ko’ra, insonparvar, demokratik jamiyat o’qituvchilarga quyidagi xislatlarda bo’lishini talab etadi. O’qituvchi vatanga sevishni, ularni insonparvarlik ruhida kamol topishiga ko’mak beruvchi oliyjanobligi, aql-farosati manaviy pokligi, ma’naviyat va mafkurani yuksak darajada bolalarga singdira boorish bolalarni uyg’onish ruhida tarbiyalab ularga milliy ong, milliy g’urur, millatparvarlik, oila tabiat, jamiyatga kasbga muhabbatli qilib shakllantirish va atroflicha bilimga ega bo’lish o’z fani bo’yicha chuqur bilim, yuksak mahorat sohibi bo’lish. Bu kabi talablar yoshlarga o’zlarining kelgusi o’qituvchilik kasbini to’g’ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

O’qituvchi o’qituvchi bo’lib tug’ilmaydi, ammo o’qituvchilikni inson o’zida shakllantiradi. Keyingi davrda mohirlik va mahorat ilimni amalyotni ancha rivojlantirgan olim akademik I. A. Karimov asoslari va nuqtalarida ijodiy namunaviy manbalar oz ifodasini topgan. O’zbekiston

Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov “Barkamol avlod-O’zbekiston kelajagining poydevori” nutqida “Bizga maktabning bitiruvchilari emas, maktab tarbiyasini ko’rganlar, ya’ni bilim, kasb-hunarni egallagan yoshlar kerakligini ta’kidladi.Prezidentimiz yoshlarni maktabga mohirlikni egallash yo’liga kiritishni ta’kidlab, mohirlik bu fahm-farosat, chinakam milliy bilim haqiqiy hayotiy tarbiya, turmushdagi qiyinchiliklarni yenguvchi, muvaffaqiyatlarda zavq olib, “yaxshi niyat”, yaxshi so’z”, “yaxshilik”sari o’zini ilhomlantiradigan yoshlar kerakligini ko’rsatib o’tdilar. Mahorat-bu murakkab ishni tez va aniq bajarishning yengilligi mehnatning yuqori sifati, barqaror ritim uchun kafolat beruvchi ishdagi ishonchlilikdir.

Inson yer yuzidagi eng mukammal, buyuk zot bo’lishi uchun avvalo tarbiyalangan bo’lishi va kasbli bo’lishi zarur. Demak jamiyat o’qituvchidan chuqur va keng ma’lumot, yuksak va pok axloqiy fazilatlar, oqituvchilik kasbiga tayyor bo’lishdek ulug’ vazifalarni talab etadi va talab etib kelgan Haqiqatda o’qituvchining davlat va xalq oldidagi ijtimoiy vazafalari keng va zaruriyatdandir.

# II. MAVZUNI ASOSLASH

## Mavzuni asoslash

Diplom ishim mavzusi Gulli Gulland natyurmortini ishlash bo’lganligi sababli golland natyurmort haqida ma’lumot bersak. XVII-asrning o’rtalaridava  2-yarmida gollandiya janirlarini interer tavsifga, turmush jihozlarini tasvirlashga o’z o’tmishlariga qaraganda ko’proq qiziqish ko’rsatdilar. Ayniqsa natyurmort tasvirlashda Vermer va Emanuel de Vette rahbarligida Del-ft maktabining ustalari yuksak mahoratga erishgan.

XVII asrning 40-yillaridan boshlab va ularga yaqin 20 yil davomida gollandiya rangtasvirida natyurmort juda keng tarqalgan edi. Rangtasvirning bu janrda ixtisoslashgan ustozlarning va ularning asarlari soni tez o’sib bormoqda. Natyurmort bo’yicha tort mutaxassislarning qatorida biz bu davrda boshqacha, anchagina kengroq tematik profildagi ustalarni uchratamiz.

Rembrandning jonsiz natura muammosiga bag’ishlangan bir necha asarlarni, uning shogirdi G. Gorstning ajoyib natyurmortlari janrchilar G. Metsyo, K. Brekelenkam, P. Yansens Eling, peyzojchi A. Kayp va boshqalar.

Yuksalish davridagi gollandiya natyurmortining o’ziga xosligi rasm va kompozitsiyaning anchagina murakkabligi, rasm formatining o’zgarishi-gorizantal formatga qaraganda, vertical formatning ustunligi 50-60-yillarning natyurmortlariga tematikaning ijtimoiy defferensiyasi aniqligi xos bo’lgan; oddiy, demokratik predmetlarni aristocrat madaniyatiga qarshi qo’yish va shu munosabat bilan natyurmortning yangi turning paydo bo’lishi-“avtrofeylari”dir.

XVII asrning natyurmorti 2 asosiy yo’nalishga ega.

Birinchi predmetlarning inson hayoti bilan bog’ligida o’ziga xos hayotini aniqlashga intilgan. Ikkinchisi; predmetlarning dekorativ

xususiyatlarni ko'rsatish, bunda predmetlar o'z hayotiy funksiyalarini yo'qotadi. XVII asrning oxirlarida aynan 2-yo'nalish ustun keldi.

Bu yo'nalishning bosh ilhomchisi Yan davida de Gum (1606-1683/84).U juda iqtidorli rassom bo'lib, har yil badiiy oqimlar ta'sirida ijod qilgan.Yan Gamning bir necha mevali natyurmortlari (1642-yil). B Van der astaning arxaik, rangi ochqi va rang-barang rasmlari ruhida bajarilgan 1625-yil Gem Leydenga borganda uning tematikasi va rang tasvir stili darrov o'zgardi. Endi yosh usta "Vanitas" Leyden tipida monoxrom rasmlarni chizadi, ularda eski sarg'aydan kitoblar, musiqa asboblarini va bosh suyagini tasvirlaydi.

20-yillarning  oxirlarida Garlem turidagi dioganal kompozitsiyasi va tanol koloriti bilan Kass va Ged asarlariga juda yaqin bo'lgan, o'sha yillarda keng tarqalgan gorlem turidagi "nonushta mavzusi bilan qiziqadi.

Yan de Geem natyurmortlarining yana bir turi-gullar girlyandalarni va mevalarni guldastalari tasvirlaydi. Gullar va mevalarni birlashmasi faqatgina dikorativlik masalasiga qaratilgan De Geem o'z rasmlarida tabiatni jonsizlantiradi, undagi tozalikni xushbo'ylikni, hayot nafasini yo'q qilib yuboradi.

Bizni qiziqtiradigan davr davomida XVII asrning 2-choragini boshlarida Garlem monarxom yo'nalishining asoschilai Pitr Klas va Billem Geda o'z faoliyatini davom etirgan.

Garlem natyurmort rang tasvirning bosh markazi degan o'rnini boshqa shaharlarga yon beradi dastavval Amsterdamga 40-yillarda "monarxom stilning" ayrim yosh namoyondalari shakillangan an'analar asosida badiiy obrazning yangi tushunchasiga kelmoqda. Bu birinchi nobatda Yan Trek va ayniqsa Yan Van de Velde'ga tegishli edi.

Yan Yans Trekning eng dastlabki mashhur resmlaridan biri 1641-yilga oid Ermetajdagi "Zakuska". Dondon Milliy gellereyasida va Budapeshdagi natyurmortlari ustaning kechki stili bilan tanishtiradi.

Yon ven Ge Vel’dening sanati golland natyurmortining bir necha yirik ustalariga kuchli ta’sir ko’rsatdi.Bulardan-Abraam vaan Bayeren, Villem Kalf, peyzojch Al’bert Keyp. A. Keyp notyurmortlarida na mo’lchlik, na rang-baranglik bor. Aksincha predmetlar katta erkinlik va aniqlik bilan bo’shliqda joylashga, orqadagi planda bir bosh uzum, metal, ko’z, bino bilan to’ldirilgan yupqa bokal, old tomondan-metall pichoq, har xil razmerdagi va rangdagi bir necha mevalar va mijiqlangan solfetka. Predmetlarni qoplab turgan tillo yorug’likning yumshoqligini vahaol bo’shlig’ini his qilishi bilan Ab’bert Keyp natyurmortlari o’zgacha maftun qiladi.

Mevalar chizgan golland rang tasvirchilardan hech qaysisi, shu jumladan uning shogirdi Abram Kal’rad ob’em yumshoqligini va mevalar yuzining nafisligini bunaqa tasvirlashga erishmagan. 1640-yil rassomlarning bir necha yirik notyurmortlari chizgan edi. Ularning muallifi-Fransua Reyxgols Middelburgda tug’ilgan, 1600 yildan keyin Dardrext va Rotterdamda yashagan va ishlagan; 1664-yil Middelburgda vafot etadi. Ko’p vaqt davomida kambag’al oshxonalatni va omborlarni hamda dehqonlarni hovlilarini tasvirlagan.

Beyron va Kal’fni golland rangtasvir evolyutsiyasining bir etobgag mansubligi, ularning predmetlar insuvidual tavsifida mahorati, kompozitsion va koloristik istedodi, ijodiy diapazonning kengligi yaqinlashtiradi. Kal’f peyzojlari, oshxonalarni avtrofeylarni nonushtalarni, qimmatbaho anjomlarni tasvirlagan, Beyeren nonushtalarni, mevalarni, gullarni baliq notyurmortlarni “Vanitos”, yovvoyi qushlari, dengiz peyzojlarni. Shu bilan birga ikkala usta bir-biridan o’zining badiiy temperament ivo taqdiri bilan kuchli farq qiladi.

Garlem tipdagi “nonushtalar usta faoliyatining eng dastlabki davriga oid. Gaagada yana 2 rassomning ijodi uning sanatiga ta’sir etgan; Yan vann Goyen va Jak de Klayv. Bu ta’sirni Beyeren marinalarida ko’rishimiz mumkin. Beyeren dengiz va dayyo peyzojlarida Gayenning keng suv yuzasini, egilgan paruslar bilan baliqchilar, egilgan pareslar bilan baliqchilik qayiqlarini, tez o’tib

borayotgan bulutlarni umumiy kul ranga bulutlarni umumiy kul rang yaqin qo’g’irsimon qora tani va dadil, dinamik mazoklarni olgan. Beyeren marinalari Geyen peyzojlaridan hayajonliroq, dromatikroq bo’lgan.

Jan de Klauv Rasmlarida u murakkab, yopiq material va rangdor xususiyatlari xilma-xil bo’lgan predmetlarning kompozitsiyalarga intilgan.

Klayv orqali Beyron Middelburgdagi buyuk rassomning ijodi bilan yondoshdi 50-yillarning boshida Beyeren yangi temotikaga, desert va bazm stollariga o’tadi. Beyerenning mashhur bazm stollaridan eng dastlabkisini 1653-yilda chizgan va Myunxen pinokotekasida saqlanmoqda.

Beyerenning natyurmortlari XVII asrning golland rangtasvirchilari tomonidan yaratgan asarlardan eng faol, quvnoq hayotiy sharbatga to’la.

Beyeren  kam sonly rasmlari gullarni tasvirlashga bag’ishlangan. Ammo ularda haqqoniy tiniqlik yumshoqlik, gul barglarining nafis hilpirashini tasvirlashga XVII asrning gul natyurmortining ustalari kabi erisha olmadi.

Kalfning “aristokrot” natyurmortlari butunlay boshqacha. Bu tip Kolfda 2 bir biridan farq qiladigan rivojlanish bosqichga ega. Birinchisi Kalfning Fransiyada yashagan paytlariga oid.Ularning soni 10 ga yaqin. Ularning barchasi stol yoki xonaning burchagida ko’p sonli qimmatbaho metal buyumlarni bino bilan to’ldirgan bakal va ozgina mevalarni tasvirlaydi.

Alstning dastlabki rasmlari Yan Gum natyurmortlari tipida chizilgan. Ular ko’pinchi mevalarni va bino bilan to’ldirilgan bokallarni, tillo yoki kumush popukli chiroyli baxmal dasturxonni tasvirlaydi. Ustaning o’ziga xos xususiyatlari: sovuq, ko’k-po’lat, nafis mayda-pridvorning naqishli rasm, detail miniatyur, email-yaltroq rang tasvir. Amsterdamga ko’chib borgandan keyin Alst Kalf rang tasvirining kuchli tasiriga duch keldi. U “desertlarni” chiza boshladi. Ammo Alst

“desertlarida” Kalfning ulug’vor ritmi va oliyjanob og’irlik yo’q: u Kalf natyurmortlarining oddiy, lapidor hajmlarini uzum shoxchasi yoki atirgul barglari xurustal va kumushlar murakkablashtirdi.

# a) Rangtasvir san’ati

## Rang tasvir san'ati

Rang tasvir – tasviriy san'at turi hisoblanadi.

Rang tasvir asari biror qattiq fazoda, rangli ashyolarda, misol uchun bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Voqealikni badiiy tasvirlash va talqin qilish rangtasvirda namayon bo'ladi. Rang tasvir tomoshabin fikri va tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasidir. U muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy vazifalarga ega. Rang tasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujeti mujassamlashgan bo'ladi. Syujetni rassom rangtasvirning ifoda vositalari: kompozitsiya, rasm, rang, ritm orqali amalga oshiradi. Rangtasvir asarlarining asosi; yog'och, qog'oz, karton, shisha, metal va maxsus ishlab berilgan mato bo'lishi mumkin. Rang tasvirning rang qatlami; moybo'yoq, guash, tempera, akvarel tangli shisha, rangli tosh bo'ladi. Ayrim hollarda uni saqlash maqsadida, ustidan berilgan yupqa lak qatlamidan iborat bo'ladi. Rang tasvir asarlarining muhim tasviriy va ta'sir vositasi-rang hisoblanadi. Rassom rang orqali xayoliy dunyo yoki borliqni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini hajim va fakturasini ko'rsatishi, harakat inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalarni, o'y-hayollarni aks ettirish mumkin. Rangtasvirning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang qurollar xususuyati, rang eritgichlari, asosiga bog'liq. Rangtasvir asari dastlab ijodkor ongi va tasavvurida paydo bo'lgan g'oya qorishmasi tarzida qalamda biror yuza, ko'pincha qog'oz va kartonda ishlab olinadi. So'ng ish mohiyatiga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishga ishlov beriladi.

Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab olinib, rasim ishlanadi. Rang berishga esa birinchi asta suyultirilgan rang bilan boshlab ko'p qatlamli yoki kerak tangni bir qo'yishga bir qatlamli bajarish mumkin.

# b) Rang tasvirda natyurmort janri

## Rang tasvirda natyurmort janiri

Naryurmort (fransuzcha nature morte-jonsiz tabiat)-rasviriy san'at janiri.

Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muhidda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yahlit guruhni tashkil qilgan narsalar janrda yaratilgan rassomlik asari ham natyurmort deb ataladi.

Asosan, adstgohli rassomlik( rang tasvir va grafika)da, qismon haykaltaroshlik (asosan, rel'ef)da ishlanadi. Natyurmort "jonsiz buyumlar" (masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratibolingan va buyum, narsa;arga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi borliq, vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan natyurmort odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kuzatish mumkin.Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhumligi boshqa janrlarga nisbatab natyurmortda nomoyon bo'ladi.

Natyurmort tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fel atvorini, qiziqishini yoritishiga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi tuzulishidagi rimik, dinamik va static holatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

Natyurmort Qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, emishnizm davri mazaikalarida xitoyda VII – asrdan boshlab, qush va gullarning kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan. Natyurmort YAvripada XVI asr oxiri XVII asr boshlarida mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi, keng tarqala boshlandi.

Eng taraqqiy etgan davri XVII-asrga to'g'ri keladi XVIII asrdan "natyurmort atamasi qo'llanila boshladi Itolyan rassom M. Karava j ova uning izdoshlari (karava jizm) Natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o'ynaydi; gul va mevalar dengiz inomi-borliq qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Rossiyada Natyurmort XVIII asrda paydo bo'ldi, ko'zni aldaydigan "huddi o'ziga o'xshash" (aldamchi) rasmlar ishlashdan shakllanib bordi. XIX-asrning 1-yarmida haqqoniylikk,

borliqni o'zidan go'zallik tanlashga harakat qilindi, shokli, faktura va bezakdorligi borasidagi yutuqlarga erishildi.

O'zbekiston tasviriy sanatida Natyumort unsurlari qadimiy davr sanatida, masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida-vazadagi mevalar misolidir. Miniatura san'atida, masalan.Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar siyohdon, qamchi misolida uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX-asrning 30-50-yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida Natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo'ladi. L. Nasriddinov "Nonli natyurmort", Sh. Hasanova "Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort" va boshqalar M. Kurzin, B. Rojdestbenskiy, O. Fadeev, N. Kashina, Z. Kovashevskaya, O. Tatavesyan, S. Abdullayev va boshqaar natyurmortlar yaratdilar. 60-80-yillarda L. Salimjonova Yu. Taldikin, M. Choriyev, V. Burmakin, E. Melnikovlar ijodida Natyurmort keng o'rin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikromjonov, M. Nuriddinov va boshqalar natyurmort janrida samarali ijod qilib natyurmortning taraqqiyotini ta'minlaydi.

# c) Natyurmort ishlash ketma-ketligi









# III.Atrof muxit muxofazasi qismi

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda.Ekologik holat ko'z o'ngimizda daxshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aqli zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchi ham inson ekanligini ma'lum bo'lib qoldi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qatiy nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog'liq. Mustaqil republikamizda ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Tabiatda o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat, mineral va yonilg'I xomashyolarini oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabiatga o'z tasirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yod bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi bular shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar yo'llar, konlar, sov omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aqil idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antrapogen ladshoftlar atrof tabiiy muhitiga o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuziga axoli sonining keskin o'sib borishi fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tizlotishni taqazo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro monosabat qonunlari buzuladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Tabiat deyilganda biz o'zimini o'rab turgan havo, suv, tuproq tog' jinslari o'simlik va hayvonlardan iborat murakkab moddiy borliqni ko'z ongimizga keltiramiz. U insonning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi yagona manba hisoblanadi bu jihatdan uni onaga qiyoslab, bejizga "Ona tabiat" deb ardoqlanmaydi. Hozir inson

aqil zaovati tufayli yerdan bir necha milliard yorug’lik yeliga teng keladigan uzoqliklarni “ko’rayotgan” bo’lsa ham bizga muhim bo’lgan olamda berorlayam yer sayyorasining tabiatiga o’xshash tabiat va hayot shakli mavjudligi aniqlanmagan yer tabiati yagonaligini yaqqolroq tasavvur qilish oson bo’lishi uchun quyidagi mahsulotlarni keltiramiz. Hozirgi ilmiy ma’lumotlarga qaraganda biz bilgan olam (koinot) bir necha yorug’lik yiliga teng masofalarda joylashgan bir nechta gollaktikalarlarning har biri necha-necha milliard yulduzlardan va boshqa fazoviy unsurlardan iborat bo’lgan tuzulmalardir. Jumladan bizning quyoshimiz joylashgan, “Somon yo’li” gallaktikasida 150 milliartdan ziyot turli o’lchamlardagi yuldizlar bo’lib, quyosh undagi o’rtacha kattalikdagi yulduzlardan biri hisoblanadi holos. Quyosh atrofidagi 9 ta sayyora va boshqa fazoviy jismlar birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi. Bu sistemaning diametric 12 milliard kilometrga teng bo’lib umumiy massasining 98-99% quyoshda jamlangan. Bizning yer va manashu sistemaning o’rtacha kattalikdagi bita sayyorasidir.

Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli tumandir. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy sog’lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik ahamiyatlarini farqlash mumkin.

Iqtisodiy ahamiyati deyilganda undagi resurslardan (havo, tuproq, materiallar, o’simlik va hayvonlar) turli ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda moddiy manba sifatida foydalanish tushuniladi. Ma’lumki, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi barcha maxsulot va xomashyolar tabiiy manbalar hisobiga yaratiladi.

Ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, insonning barcha bilimlari negizida tabiat va undagi turli jarayonlarni kuzatish o’rganish tahlil etish va amaliy xulosalar qilish yotadi.

Sog’lomlashtirish ahamiyati deyilganda sof tabiiy unsurlar (musaffo havo tozza suv unumdor tuproq ba havo o’rmon)ning va shifo beruvchi tabiiy moddalar jarayonlarning inson salomatligiga ijobiy tasiri

tushuniladi. Bundan qariyb ming yil avval yashab o'tgan buyuk o'tmishdoshimiz Abu Ali Ibin Sino "Odamlar salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan" deganda tabiatni aynan shu xususiyatini nazarda tutgan bo'lishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Tarbiyaviy ahamiyati deganda sof haqiqiy tabiatni kishilarda oily janoblik, xushfellik, bag'rikenglik vatanparvarlik ulug'vorlik muloyimlik kabi ahloqiy hislatlarni uyg'otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo'ynida yoki tez tez u birga bo'lish insonlarning yoshidan qatiy nazar ularda insoniy fazilatlarning kamol topishiga yordam beradi.Jamiyatda kuzatiladigan ruhiy qashshoqlik, qo'pollik, loqaytlik, jahildorlik, rahim shavqatsizlik, vahshiylik kabi illatlarning barcha oily sabablaridan biri ham kishilarni suiy muhitga tushib tabiatdan ajralib qolganliklaridandir.

Tabiatning estetik ahamiyati beqiyosdir. Insondagi barcha go'zallik, mukammallik musiqa, tasviriy san'at, kuynavo hislari va ularga ehtijoylarni negizida tabiat yotadi. Tabiatdagi yam yashil vodiylar zilol suvli buloq va soylar, pirviqor tog'lar bepoyon kengliklar rang barang gullar xushovoz va chiroyli qushlar inson uchun faqat moddiy nematlar manbayiniga emas balki bitmas tuganmas ijod go'zallik did va ruhiy quvvat manbaidirlar. Ko'rinib turibdiki inson ham jismonan ham ruhan atrof tabiiy muhit bilan uzviy bog'liq ekan u tirik argonizm sifatida o'z mavjudligini taminlash uchun doimo tabiat bilan modda energiya va ahborot almashib turishga majburdir. Bu degan so'zz, inson tabiatni tarkibiy sifatida u bilan birgalikda uni ichida mavjud bo'la oladi demakdir.

Insonning tabiatga tasiri boshqa faol bo'lmagan mavjudodlar (o'simlik va hayvonot) tasiriga nisbatan faol va harakteri jihatdan tubdan farq qiladi. Ya'ni inson ongi tufayli tabiatni o'z ehtiyoji va maqsadiga muvofiq tarzda o'zgartirish va moslashtirish imkoniyatiga ega. Tabiat bilan bo'ladigan munosabatlarda insonga faollik va boshqa tirik mavjudodlar orasida yetakchilik qilish huquqini beruvchi omil isnon ongi ijtimoiy muhitda, ya'ni jamiyatda shakllanadi yuqoridagi fikrlardan

kelib chiqib insonni ikkita ya'ni tabiiy va ijtimoiy muhitlarning mahsuli bo'lgan bio ijtimoiy mavjudod deb atash mumkin Insonda ham moddiy ham ruhiy mohiyat mujassamlashgandir. U tirik mavjudod sifatida tabiat mahsuli, ongi tufayli esa ijtimoiy muhit mahsuli hisoblanadi. O'zlarining beologik hususiyatlari, ijtimoit mavjudod va boshqa sharoitlariga ko'ra turlicha ongga ega bo'lgan kishilar birgalikda kishilik jamiyatini tashkil etadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, inson tabiat bilan jamiat o'rsatidagi bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi, bundan yana shunday xulosa kelib chiqadiki, inson tabiatni uzviy tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ular tashkil etgan jamiyat ham tabiatsiz mavjud bo'la olmaydi. Boshqacha qilib aytganda tabiat, inson va jamiat, yahlit bir tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar tarkibiy hamda ular maskur tizimning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadilar. Maskur o'rinda shuni ham esda tutish zarurki, tizimning komponentlaridan biri bo'lmish jamoat ong tufayli moddiy boylikni borliqning eng oily rivojlangan shakli hisoblanadi. U bir qator o'ziga xos ichki ijtimoiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi manashu qonuniyatlarni tizimning boshqa komponentlari rivojiga to'siq bo'lmasligi ekologiya jihatdan muhim ahamiyatga ega malumki har qanday tizimning barqarorligi komponentlarning o'zaro munosib ravishda rivojlanishi va ular orasidagi munosabatlar muvozanatlashgan holatda bo'lishini taqazo etadi.

# IV. O’quv uslubiy qism

Pedagog yosh o'qituvchilik kasbi ham murakkab kasblardan biridir. Hozirgi zamon o'qituvchi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jihatdan pishiq ruhan tetik, bilimdan vatanparvar mamlakatimizga demokratik jamiyat qurishning aktiv benakor qilib yetishtirish vazifasini yuklangan. Shuning uchun ham u keng ma'lumotli va yuksak manaviyatli kishi bo'lishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarning tabiati bo'lishi, ular barcha olbatda o'z oqituvchilariga taqlid qilishlarini unutmasligi xox darsda xom darsdan boshqa vaqtlarad xox jamiyatchilik to'planadigan yerlarda xox kiyinishiga o'zini o'qituvchilariga namuna bo'ladigan darajada tuta olishi lozim.Bunga erishish uchun o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak.Bu talabchanlik bo'lishi kerak. Bu talabchanlik avvalo o'zga haqiqiy o'qituvchiga xos hamma ijobiy xislatlarni o'z tarbiyalanuvchilari oldida to'g'ri namoish qila olgan o'qituvchigini o'quvchilarning xurmat va izzatiga sozovor bo'la oladi.

O'qituvchi qanchalik ma'lumotli ishning qiziqish bilan biladigan bo'lsa o'z malakasini tinmay oshirib borsa, uning maktabda va maktabdan tashqari qilinadigan ishlar soxasida erishadigan muvaffaqiyatlari ham shunchalik serunum bo'ladi. Bunday o'qituvchi o'zi ishlayotgan sinfda darsni pedagogoik va didoktik talablar asosida puxta uyushtiradi. Har bir o'qituvchining psixologik xususiyatlarini sitedod va qobilyatini darsni o'zlashtirish yoki o'zlashtira olmaslik sabablarini o'qituvchining ichki dunyosini tezda bilib oladi. Bu esa o'sha o'qituvchi ishlayotgan sinfda umuman maktabda ta'lim va tarbiya ishlarining to'g'ri (o'ylagan) yo'lga qo'yishiga yordam beradi. Buning uchun u doimo maktab va xalq maorifiga doir adabiyotlar bilan tanishib borishi, o'zi o'qitadigan predmetni yaxshi bilishi kerak.

Shuning uchun xamisha yangi g'alabalar sari dadil qadam tashlab boruvchi yangiliklar izlovchi har bir o'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlarini zamonaviy talablariga javob bera oladigan darajaga ko'tarishlar uchun tabiat va jamiyatning vujudga kelish hamda taraqqiy etish

qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak. O’qituvchi sinfda va sinfdan tashqarida o’qituvchilar o’rtasida olib boradigan ta’lim tarbiya ishda ularni xozirgi zamon masalalari bilan tanishtiradi, ularga yangi kishiga demokratiya sharoitlarida yashaydigan kishiga xos xususiyatlarni tarbiyalaydi.

O’qituvchi talablarni sevishini ular chinakam g’amxo’rlik qilishini va ular bilan o’z farzandidek munosabatda bo’lishi kerak. Talabalar mehribon, ochiq ko’ngil o’zini ularga yaqin tutadigan o’qituvchini sevadigan har bir ishda unga erishishga harakat qiladigan, hamma shunday xususiyatlarga ega bo’lgan pedagogiklardan ba’zilarini umur bo’yi unutilmaydi.

O’qituvchiga xos xususiyatlardan yana biri talabalar bilan bir meyorda munosabatda bo’lish lekin ularga nisbatan qat’iy va jiddiy talabchan bo’la olishdir.

O’qituvchi talabalar bilan yaqindan munosabatda bo’lish ularga doimo g’amxo’rlik qilish bilan bir vaqtda ularni erkalab xam yubormasligi kerak.Talabalar o’zlari bilan huddi tashqari qo’pol muomilaga bo’luvchi o’qituvchini sevmaydilar.Bos shunday ekan o’qituvchi talabalar bilan har tomonini hisobga olgan holda bir meyorda muomila qilishi kerak.

Pedagogik o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to’g’risidagi fandir.Kishilar jamiyati taraqiy etishi bilan u ham o’sib boradi. Kishilik jamiyati paydo bo’lish bilan odamlarning mehnat faoliyati protsessida ularning  ishlab chiqarish tajribalari mehnat faoliyati muholazalari paydo bo’ldi va ular o’rganib orta bordi. Ulardan turli mehnat qurollarini ishlata olish ko’nikmalarni hosil bo’ldi va bi qurollarni takomillashtirish qobilyati. Nutuq va tafakkur o’sib rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat prosissualda ortirgan tajribasi asosida o’sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatda ishtirok etishga o’rgatishi kerak edi va shunday qildi. Shunday qilib tarbiya kishilik jamiyati praktik ehtiyojning obyektiv zaruryatidan kelib chiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi.

Kasbiy ta’lim deganda talabalarning muayyan tipdagi o’quv yurida o’quv jarayonida egallab olish lozim bo’lgan hamda sistemaga solingan bilim malaka va ko’nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu bilan, malaka va kp’nikmalar doirasi eng muhim faktlar milliy tushunchalar qonun va nazariyalarni dunyo qarash g’oyalarini axloqiy hamda estetik nermalar va ideallarni talabalarni ko’rsatilgan ma’lumotlarni o’rganish ularning ilmiy tafakkuri va ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish usullari haqidagi materiallarni shuningdek malaka va ko’nikmalarni shu jumladan (olingan bilimlarni amalga qo’llash va yangi zamonaviy bilimlarni kompyuter va boshqa) amalda qo’llash va yangi bilimlarni egallashda malaka hamda ko’nikmalarni o’z ichiga oladi. Kasbiy ta’limning mazmuni bir qator faktlarni hisobga olish bilan belgilanadi bu faktorlarning asosiylari quyidagilardir.

a) Ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv ehtiyojlari hamda gan va texnikaning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy tizimning harakatini bunga davlatimizning hozirgi  paytda olib borayotgan kasbiy ta’lim nazariyasi esa manbayi ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish chora tadbirlarni haqidagi bosqichma bosqich islohatlarni kiradi.
b) Davlatimiz muayyan tipdagi o’quv yurti oldiga qo’yilgan maqsad hamda vazifalari.

Maxsus fan o'qituvchisi
Rasulova Dilbarning
4 soatga mo'ljallangan

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlar bo'yicha
Direktor o'rinbosari

**Dars reja matni**

**Guruh:** 210

**Sana:** 15.04.13

**Darsning tartib soni:** №4 soatga mo'ljallangan.

**Darsning mavzusi:** "Rang tasvirda natyurmort" janiri

**Darsning maqsadi:** Talabalarga natuyrmort ishlash ketma-ketligini tushuntirib ko'rsatish.

**Ta'lim:** Ishlab chiqarishning ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** Talabalarni kasbiy malakalarini shakllantirishda ustoz shogirt ananalarda amal qilishni o'rganish

**Rivojnatiruvchi:** Talabalarga individual usulda topshiriq berib ularning ijodiy qobilyatini o'stirish

**Darsning turi**

Darsda qo'llaniladigan asosiy usullar

**Darsning jihozi:** Ushbu darsga ta'luqli bo'lgan asbob uskunalar, materiallar chizmalar va slaydlar

**Darsning mazmuni**

**1. Tashkiliy qism:** Talabalar bilan salolashib jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.

**2. O'tilgan dars mavzusini so'rab mustahkamlash va talabalar bilimini baholash**

**a)** Rang tasvir san'ati tarixini bilasizmi?
**b)** Rang tasvir janri va uslublarini bilasizmi?
**c)** Rang tasvir necha xil janrga bo'linadi?
**d)** Natyurmort qanday ishlanadi?

**3. O'tilgan mavzuga yakun yasash.**

**4. Yangi mavzuning borishi.**

**5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol javoblar.**

**6. Uyga vazifa.**

**7. Darsni yakunlash.**

## Darsning borishi

1. Natyurmort ishlashdagi ishlar ketma-ketligi talabalarning kasbiy malkalarini shakillantirish.
2. Ntyurmort ishlashdagi ishlarni boshqarishga ustoz shogirt ananalari ustoz va shogirtning o’zaro mezonlari asosida ish yuritib boorish.
3. Yuqoridagi o’tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talaba tafakkuri va kasb qiziqishini oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid portretlarni yaratish.
4. Ezkizlardan foydanalib oq qog’ozga eskiz tayyorlash.

**“Rang tasvirda natyurmort ishlash” mavzuga “Tushunchalar tahlil” uslubini qo’llab o’tiladigan 80-minutlik dars taqsimoti**

| Mazmun va unga doir harakat | Vaqt |
|---|---|
| Salomlashish, davomadni tekshirish, tarbiyaviy suhbat. | 5 daqiqa |
| a)Uy vazifasini tekshirish va so’rab mustahkamlash.<br>b) Bilimlarni baholash. | 15 daqiqa |
| Yangi mavzu bayon qilinib talabalarni guruhlarga ajratiladi | 5 daqiqa |
| Talabalar mashg’ulotni o’tkazishga qo’yilgan talab va qoidalar bilan tanishtirildi. | 5 daqiqa |
| Tarqatma materiallar guruh a’zolariga tarqatiladi. | 5 daqiqa |
| Talabalar yakka tartibda yangi mavzu bo’yicha tarqatma materiallarda berilgan natyurmortlar bilan tanishtiradilar. | 5 daqiqa |
| Talabalar tarqatma materiallarda berilgan natyurmortlar to’g’risida o’z fikirlarini yozma tarzda bildiradilar. | 20 daqiqa |
| O’qituvchi ilyustrotsiyalar bo’yicha berilgan tushunchalarni o’qib chiqib guruhlar bilan birgalikda har bir tushunchaga to’g’ri izoh belgilaydi. | 15 daqiqa |
| Har bir talaba to’g’ri javob bilan belgilangan javoblarni farqlarini aniqlaydilar kerakli tushunchaga ega bo’ladilar o’z-o’zlarini tekshiradilar,baholaydilar shuningdek bilimlarni yana bir bor mustahkamlaydilar. | 5 daqiqa |

**“Tasdiqlayman”** o’qituvchi

**kollej direktori**

___ _________

2012-2013 o’quv yiliga mo’ljallangan I-bosqich rang tasvir guruhi uchun

Rasulova Dilbarning “Rang tasvir” fanidan tuzgan yillik ish dasturi

| T/r | Bo’lim va mavzularning nomi | Mashg’ulot tartib raqami | Dars o’tilgan kum | Darsga ajratilgan soat | Mashg’ulot turi va tipi | Ko’rgazmali qurollar va texnik vositalar | Mustaqil ish turi. Amaliy labaratoriya tadqiqoti | Uy vazifalari | Adabiyotlar | Fanlar aro bog’lanish | Izox |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| I | II | III | IV | V | VI | VII | VIII | IX | X | XI | XII |
| 1 | Mutaxasislikka kirish | №1 | 2.04.13 | 2 | Og’zaki amaliy | Rangtasvirga oid plakat va slaydlar | Mustaqil ish turi. Rangtasvir faniga oid olgan bilim va ko’nikmalarning yozma bayoni | Natyurmort chizishda qo’lladniladigan adabiyotlar va asboblarni olish | Rangtasvir sanati muzeyi | Fanlar | |
| 2 | Kirish rang tasvir asoslari | №2 | 14.04.13 | 2 | Og’zaki | Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plokatalr | | | | | |
| 3 | Rang tasvir turlari | №3 | 20.04.13 | 2 | Og’zaki | Rangtasvir turlariga oid rasmlar | Rangtasvir turlarini ish dasturiga yozib boorish | | | tarix | |

| I | II | III | IV | V | VI | VII | VIII | IX | X | XI | XII |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Rangtasvirda mazmun va shokil | №4 | 26.04.13 | 2 | Og’zaki | Rangtasvirda mazmuni va shakliga oid bayonnamalar va rasmalr | | O’quv kelishi | Maruza matni | Tarix | |
| 5 | Rangtasvir janri | №5 | 2.05.13 | 2 | Og’zaki | Rangtasvir janriga | | | | | |
| 6 | Rangtasvir san’ati | №6 | 8.05.13 | 2 | Og’zaki | Shu tarixiy izchil zamon meyorlariga oid rasmlar | Mustaqil o’qish | O’qib kelish | Maruzalar matni | | |
| 7 | O’zbekiston rangtasvir san’ati | №7 | 14.05.13 | 2 | Og’zaki | Rangtasvir shu dars maktablarida oid rasm va plokatlar | | Asboblar bilan tanishish | | Rasm | |
| 8 | Daras o’tish xonasiga xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsizligi | №8 | 20.05.13 | 2 | Og’zaki va amaliy | Xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsizligiga oid plokatlar | Plokatlarni o’rganish | | | Fizika ximiya | |
| 9 | Natyurmort ishlashda ishlatiladigan asbob uskunalar moybo’yoq aralashmalarni saqlash | №9 | 26.05.13 | 2 | Og’zaki | Ma’lum usullardan foydalanish | | | | | |
| I | II | III | IV | V | VI | VII | VIII | IX | X | XI | XII |
| 10 | Natyurmort | №10 | 1.06.13 | 2 | Og’zaki | Moybo’yoq | Eng sifatli | Sifatli | | Fizika | |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ishlashda ishlatiladigan moybo'yoq turlari | | | | | turlari tasvirlangan sloytlar | moybo'yoqni tanlash | moybo'yoq topish | | ximiya | |
| 11 | Natyurmort eskizini qog'ozga chizish | №11 | 7.06.13 | 4 | Amaliy | Natyurmort eskizlari chizilgan plokatlar | Eskizlarga bo'yoq tanlash | | | Ximiya | |
| 12 | Natyurmort quyilmasi va kompozitsiyasi haqida tushuncha bersh | №12 | 13.06.13 | 2 | Og'zaki | Natyurmort kompozitsiyasi tasvirlangan plokatlar | | | | Kompo-zitsiya | |
| 13 | Quyulmalarni qalamda so'ngra rangda kerakli o'lchamda chizib olish | №13 | 19.06.13 | 4 | amaliy | | | | | Mate-matika | |
| 14 | To'rtburchak shakilli qog'ozga moslab natyurmort eskizni chizish | №14 | 25.06.13 | 4 | Amaliy | Eskizlardan foydalanib | | | | Chizma-chilik | |
| | Taqdimot jami | | | 50 | | | | | | | |

**Tuzuvchi fan o'qituvchi** **Rasulova Dilbar**

Samarqand viloyat
Samarqand shahar
Sanat kolleji
Rangtasvir
№ guruh
Marabbiysi

Tasdiqlayman
Kollej ma'naviyat
va ma'rifat ishlari
bo'yicha direktor
o'rinbosari

**O'qituvchi Rasulova Dilbarning**
**2012-2013 o'quv yilida bajariladigan**
**ma'naviy va ma'rifiy ishlar**
**rejasi**

| № | Bajariladigan tadbirlar | Bajarish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| | **Avgust** | | |
| **1** | Dars sinf xonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, advlat bayrog'I, davlat gimni va president asoslari bilan jihozlash | 25.08.13 | Murabbiy |
| | **Sentabr** | | |
| **2** | 1-sentabr o'zbekiston respublikasi mustaqilligi kuniga bag'ishlangan tadbirda qatnashish | 1.09.13 | Ma'naviy va ma'rifat direktorii o'rinbosari |
| | **Sentabr** | | |
| **3** | Bilim yurtga kelgan talabalarni bilim yurtining ichki qonun qoidalalari bilan tanishish | 2.09.13 | Direktor murabbiy |
| | **Oktyabr** | | |
| **4**<br>**5** | O'zbekiston rassomlar ijodiga natyurmort haqida suhbat.<br>Guruh davomati va o'qish jarayonini tekshirib boorish | doimiy | murabbiy |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Noyabr** | | | |
| **6** | O'zbekiston Respublikasining davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to'liq ma'lumot berish | Doimiy | Tarix o'qituvchis |
| **Dekabr** | | | |
| | "8-dekabr O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi" mavzusiga talabalarga maruza o'qish | | Murabbiy tarix o'qituvchis |
| **Yanvar** | | | |
| | I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va (xususiy) maxsus fayillardan to'plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat reyting ballarini ko'rib chiqib talabalar bilan birgalikda tahlil qilish | | Murabbiy |

**Tuzuvchi guruh rahbari o'qituvchisi Dilbar Rasulova**

# V. Xulosa

## Xulosa

San'atga bo'lgan qiziqishim meni shu oily dargoh tomon yetakladi.Haliham esimda, to'rt yil oldin abgust oyida talaba bo'lganimni eshitib o'zimda yo'q xursand edim.Chunki oldimga qo'ygan maqsadim ya'ni orzularimning birinchisi amalga oshgandi o'shanda.Mana oradan to'rt yil o'tib orzularning asosiy amalga oshish rafasida turibdi.Pedagog san'atshunos bo'lish orzusi maktab daridan keyinchalik kollej davridan boshlab menga tinchlik bermasdi.

Ana shu to'rt yil davomida ustozlarda bilmaganlarimni o'rgandim.San'at sirlaridan bohabar bo'ldim.Ko'pgina rassomlar ijodidan bahramand bo'ldim. Ularning asarlarni o'rgandim, tahlil qildim va nusxalar ko'chirdim.

O'ylaymanki ana shu bilim va ko'nikmalar, diplom ishimni bajarishda qo'l keladi. O'z navbatida to'rt yillik tahsilim oxirida ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman.

Ustozlarim qatorida ota-onamga va turmush o'rtog'imga rahmat aytaman. Ularning yordamisiz men bu natijalarga erishmagan bo'lar edim.

# VI.Adabiyotlar

## Adabiyotlar:


1. I. A. Karimov "O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" Toshkent 1992-yil.
2. I. A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" Toshkent 1997-yil
3. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent 1997-yil
4. "Bo'yoqlar bilan ishlash" X. Egamov Toshkent "O'qituvchi" 1981
5. "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" Oripov B. Toshkent "Ilm-Ziyo" 2005-yil
6. "Zamonaviy o'qitish taxnologiyalari" X. T. Avliyoqulov Toshkent 2001-yil
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
8. "Rangshunoslik" M. Nabiyev Toshkent "O'qituvchi" 1995-yil
9. "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" N. Oydinov Toshkent 1997-yil
10. "Rangtasvir" S. Abdurasulov, N. Tolipov Toshkent O'.M.KXTM 2005-yil.
11. "Oila va jamiyat" Samarqand 2011-yil.
12. WWW.arts-muzeum.ru/.../index.php.